



## EMAN DARAXTI KO'CHATLARINI URUG'DAN KO'PAYTIRISH

<sup>1</sup>Umarov Bekzod Baxtiyorjon o'g'li

1Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti  
“Dehqonchilik va o'rmon melioratsiyasi” kafedrasi assistenti,

<sup>2</sup>Ortiqova Dilyoraxon G'ayratjon qizi

2Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti  
talabasi,

<sup>3</sup>Axmadow Qosimjon Furqat o'g'li

3Andijon qishloq xo'jaligi va  
agrotexnologiyalar instituti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7273765>

### ARTICLE INFO

Received: 22<sup>nd</sup> October 2022

Accepted: 01<sup>st</sup> November 2022

Online: 02<sup>nd</sup> November 2022

### KEY WORDS

Eman daraxti, gullashi,  
urug'ining shakli,tuproq holati,  
qurg'oqchilikka chidamli,  
barglari, xona harorati.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada eman daraxtini qanday sharoitlarda ekilishi, urug'ning shakllari, mevasining xususiyatlari, emanning qancha yil umr ko'rishi necha yildan so'ng gullashi, eman daraxtinining urug'i va qalamchasidan ko'karishi va boshqa shunga oid ma'lumotlar berilgan.*

Dunyoda aholi yashash joylarini ustuvor yo'nalishlari sifatida yuqori manzarali, istiqbolli, turli tashqi zararli omillarga chidamli o'simlik turlarini aniqlash va tezkor ko'paytirishning samarali maqbul usullarini ishlab chiqish tadqiqotlariga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi manzarali o'simlik ko'chatlarini yetishtirishning ilmiy asoslarini hamda istiqbolli texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor bermoqda. Bu o'rinda yurtimizda o'stirishga moslashtirilgan manzarali, istiqbolli va qurg'oqchilikka moslashgan o'simliklarning bioekologik xususiyatlarini o'rganish, ularga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish hamda ko'kalamzorlashtirish ishlari uchun ko'paytirish usullarini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-mayda qabul qilgan “O'zbekiston

Respublikasi o'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” PQ-2966-son qarori sohaning moddiy-texnika bazasi jismonan va ma'nан eskirgani va yetarli darajada modernizasiya qilinmayotgani, xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlarning grantlarini sohaga jalb qilish ishlarining sustligi, ushbu tarmoqda yuqori malakali mutaxassislar yetishmasligi, o'rmon qonunchiligidagi ayrim me'yorlarning amaliy ahamiyati va ularni amalga oshirish mexanizmi yo'qligi soha faoliyatini rivojlantirish, o'rmonlarni ko'paytirish, muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shuning uchun yurtimizda hududlarni ko'kalamzorlashtirishda manzarli va atmosfera havosini tez yangilab beradigan daraxtlarni ekish bo'yicha ilmiy ishlar qilinmoqda. Ushbu maqolada Eman daraxti ekilishi va uning turlari haqida ma'lumot



beriladi.O'zbekistonda emanning qizil turi ekiladi.Barglari teskari tuxumsimon,o'yma novdalari qizg'ish-qo'ng'ir rangda tuksiz.To'pguli kuchala yoki boshcha.Aprel oyida gullaydi.15-60 yoshidan boshlab gullay boshlaydi. Yog'ochi aviatsiya va kemasozlikda,qurilishda mebel sanoatida, bo'chkasozlikda qimmatli homashyo 1-rasm. Eman urug'larini ekishga joyni tayyorlash.

hisoblanadi.Po'stlog'idan teri oshlashda foydalilaniladi. Ildizi o'q ildiz, 5 metr chuqurlikka kirib boradi.Daraxtning balandligi 20-25 metr, shox-shabbasi keng.Sentabr oyida urug'i pishadi,mevasi yong'oqcha (cho'chka yong'oq).Eman yorug'sevar,qurg'oqchilikka chidamlili daraxt. 30°C gacha sovuqqa chidaydi.



Eman daraxti urug'idan va qalamchasidan ham ko'karadi. Kavkazning ko'p tumanlarida qator qilib ekilib, xushmanzara daraxt sifatida foydalilaniladi. U o'rtacha iqlimda, havosi sernam mamlakatlarda ekilsa, yaxshi o'sadi. Ayrim joylarda 2000 yoshga kirgan tuplari uchraydi. Eman daraxti har-xil tuproq sharoitida o'sishi bilan boshqalardan ajralib qiladi.

Andijon qishloq xo'jaliga va agrotexnologiyalar instituti hovlisida 6-tup eman daraxti bor.Ulardan 2-tupi piramidasimon eman(*quercus pyramidalis*),4-tupi yirik mevali eman (*quercus macro carpa*).Ularni bir-biridan farqlash uchun urug'larini terib o'rgandim.Urug'larni 1-kilogrammini elektron tarozida tortib oldim.Tortishdan maqsad 1 kg urug' ichida necha dona urug' borligini aniqlash. Andijon qishloq



xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti hovlisida eman daraxti urug'i pishib,to'kilgan.Men 5-sentabr kuni eman urug'larini institut hovlisidan terdim.Tergan urug'larim 10-12 kg keladi.Ertasiga dushanba kuni yana urug'larni terdim.Urug'lar 8-10 kg keladi.Ertasi kuni ham eman urug'larini gruppadoshlarim bilan terdik.Urug'larning

og'irligi 20 kg keladi.Shu hafta davomida eman urug'larini terdim. Tergan urug'larim jami 70 kg ga yetdi.

Uyimizni hovlisiga 1 metrga 0.5metr to'g'ri to'rtburchak shaklida yerni kovladim, keyin unga 2 qop qum to'kdim.qumni yoyib,so'ndirilgan ohakdan ozgina sepib,eman urug'larini ekishga tayyorladim.



2-rasm.Eman ekish uchun yerga qum to'kish va yerni tayyorlash jarayoni.

Keyin 10 sm chuqurlikda egatchalar oldim. Eman urug'larini qator qilib qo'yib chiqdim, keyin ustiga qum tashlab ko'mib chiqdim.Chekkasiga salafan qo'yib qumli yerni sug'ordim. Qolgan eman urug'larini chelakka solib ustiga suv quyib qo'ydim.1hafta chelakda ivitilib turdi.Konteyner idishlarga 3 xil tuproqda-qum,tuproq,gumus soldim.Konteynerlarga eman urug'larini 2 donadan solib ustiga tuproq solib ko'mib qo'ydim.Ustidan suv quydim ,keyin termostatga 30 C ga 3 kunga

qo'ydim 3 kundan keyin konteynerlarni termostatdan oldim. Eman urug'lari nish ura boshlabdi, keyin ularni xona haroratida 20-25 C qo'yib qo'ydim.

Xulosa qilib aytganda,bizning Andijon viloyati va boshqa hududlarda ham iqlim resursiga boyligi tuproq sharoitining ekin ekishga normal holatda ekanligi ko'plab turdag'i daraxt va o'simliklarni bu sharoitga moslashtirish va ko'kalamzorlashtirishga tadbiq qilishga imkon beradi.Buning uchun eman kabi



daraxtlarni morfostrukturasini har tomonlama o'rganish, ularni tajriba sifatida turli hududlarga ekish lozim. Bu tadqiqotlar o'z samarasini bergenidan so'ng

dendrofloramizni yanada boyitish, ko'kalamzorlashtirish ishlarini tadrijiy ravishda amalga oshirish lozim



2021-10-17 12:21

3-rasm.Yerga egat olib eman urug'ini qator qilib ekish jarayoni.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida" gi qonuni. Toshkent 2018 y O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi o'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-2966-son qarori. 2017 yil 11 may
2. Xonazarov A.A "O'rmonchilik" Toshkent "O'rmon loyiha" 2001 y 25-58 betlar
3. Xonazarov A.A, "O'zbekistonda o'rmonzorlar barpo qilish asoslari" Toshkent "O'rmon loyiha" 2002 y 103 bet
4. Xonazarov.A.A va boshqalar "O'zbekiston hududini ko'kalamzorlashtirishda foydalanilgan asosiy manzarali daraxt va butalar" Toshkent "Fan va texnologiya" 2008 y 55-59 betlar
5. Yuldashev Ya.X "O'rmon daraxtlari ko'chatzorlarini barpo etish va unda ko'chatlarin yetishtirishning ilmiy-amaliy asoslari" Toshkent "Tosh DAU nashr tahririysi bo'limi" 2001 y 13-31 betlar
6. [www.ramhouse.ru](http://www.ramhouse.ru)
7. [www.ask.com](http://www.ask.com)
8. [www.dub.com.us](http://www.dub.com.us)



# EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH

Innovative Academy Research Support Center

**UIF = 8.1 | SJIF = 5.685**

[www.in-academy.uz](http://www.in-academy.uz)

9. [www.florall.ru](http://www.florall.ru)

10. [Ziyo.net](http://Ziyo.net)